
Xayrullo Bozorov: Farg'ona shahri ko'chalari obod bo'lishi shart

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahar sektorlar rahbarlari bilan birgalikda shahardagi Universitet, Sohibqiron Temur ko'chalari, San'at saroyiga kirish hududi atrofidagi ko'chalarda bo'lib, obodonlashtirish ishlarining borishi bilan tanishdi.

Universitet ko'chasi bo'ylab piyoda yurilar ekan, yo'lining ikki tomonidagi trotuarlardagi plitkalarining joyidan ajralib ketganligi, yonlari qarovsiz, chiqindilar to'planib, maysalar qurib qolganligi, lotoklardan suv yurmay, berkilishga kelib qolganligi, bekatlarda esa yo'lovchilar uchun deyarli joy qolmaganiga guvoh bo'lindi.

Sohibqiron Temur ko'chasida ham shu holat kuzatildi. Farg'ona davlat universitetining talabalar turar joyi bo'lgan binoning old qismlari shunchaki o'z holiga tashlab qo'yilgan. Maydon qaqrab, turli xil chiqindilar bilan to'lgan.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahri ko'chalarini bu kabi qarovsiz holga kelib qolishiga befarq bo'lgan shahar hokimini va sektorlar rahbarlarini qattiq tanqid qildi. Har bir qarich yerdan unumli foydalanish zarurligini ta'kidlagan viloyat hokimi, shahar mas'ullariga ko'p qavatli uylar atrofidagi bo'sh turgan joylarni tartibga keltirish, qarovsiz joylarga, yo'l yoqalariga manzarali daraxt ko'chatlari va gullarni o'tqazishni tashkillash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

2022-09-27 16:23:21